

IMOM BUXORIY HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Xayotbek Raximov

Xoja Buxoriy islom bilim yurti 1 - bosqich talabasi.

raximovxayotbek007@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19510649>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada buyuk muhaddis Imom Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyatining shakllanish bosqichlari, ustozlari va shogirdlari, ilmiy merosi, fiqhiy qarashlari hamda hayotining so'nggi davri har tomonlama tahlil qilinadi. Maqolada allomaning "Al-jome' as-sahih", "Al-adab al-mufrad", "At-tarix al-kabir" kabi asarlari, tarix va hadis ilmlariga qo'shgan hissasi, shuningdek, uning mustaqil ijthod darajasidagi fiqhiy salohiyati ilmiy dalillar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Imom Buxoriy, hadis ilmi, Al-jome' as-sahih, roviylar tarixi, ijthod, fiqh, islom sivilizatsiyasi.

Islom ilm-fani tarixida beqiyos o'rin tutgan allomalardan biri – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. U nafaqat hadis ilmining sultoni, balki tarix, fiqh va roviylar ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkirdir. Uning hayoti, ilmiy faoliyati va merosi asrlar davomida musulmon olimlari tomonidan chuqur o'rganilib kelinmoqda. Mazkur maqolada Imom Buxoriyning hayot yo'li, ilmiy shakllanishi, ustozlari, shogirdlari, asarlari va fiqhiy qarashlari ilmiy tahlil etiladi.

Imom Buxoriyning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Hasan Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra ibn Bardizbah al-Ju'fiy al-Buxoriydir. Ularning nasabi Buxoro zaminiga borib taqaladi. Ajdodlaridan Mug'iyra ibn Ahnaf Bardizbah dastlab musulmon bo'lmagan bo'lsa-da, keyinchalik Islomni qabul qilib, Ju'fiy qabilasiga nisbat berilgan. Shu sababli Imom Buxoriy nomida "al-Ju'fiy" nisbatining mavjudligi tarixiy an'ana sifatida qaraladi.

Imom Buxoriyning otasi Ismoil ibn Ibrohim ham ilmi va taqvodor inson bo'lgan. U hadis ilmi bilan shug'ullanib, mashhur muhaddislar davrasida yetishgan. Bu ilmiy muhit Imom Buxoriyning kelajakdagi ilmiy shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatdi. Imom Buxoriy hijriy 194-yilda (milodiy 810-yil) Shawvol oyining o'n uchinchi kechasida, juma namozidan keyin Buxoro shahrida tug'ilgan. Yoshligida otasidan ayrilgan bo'lsa-da, onasi va akasi Ahmad tarbiyasida ulg'aydi.

Imom Buxoriyning bolalik yillari asosan ilm talabida o'tgan. U kichik yoshidan hadislarini yod olishga katta qiziqish bildirgan. Rivoyatlarga ko'ra, u o'n yosh atrofida hadis ilmini o'rganishni boshlagan. Kutubda o'qib yurgan davrida ustozlarning ayrim sanadlaridagi xatolikni ko'rib, to'g'rilagan holatlari ham qayd etiladi. Bu esa uning yoshligidayoq kuchli xotira va tanqidiy tafakkurga ega bo'lganini ko'rsatadi.

O'n olti yoshga yetgach, u mashhur muhaddislarning asarlarini yod olgan va hadis ilmi asoslarini puxta egallagan. Keyinchalik onasi va akasi bilan Makka safariga boradi. Haj ibodatidan so'ng, akasi vatanga qaytadi, Imom Buxoriy esa ilm o'rganish maqsadida Makka shahrida qoladi.

Imom Buxoriyning ilmiy faoliyati Buxoroda boshlanib, keyinchalik Makka va Madina kabi ilmiy markazlarda davom etdi. U hadislarini yig'ish va o'rganish maqsadida ko'plab safarlar qilgan.

Makka, Madina, Basra, Kufa, Bag‘dod, Shom va boshqa ilm markazlariga borib, mashhur muhaddislardan saboq oldi. Bu safarlar davomida minglab hadislarini to‘plab, sanadlarini tekshirgan. Ilm talabi yo‘lida u ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelgan bo‘lsa-da, hech qachon bu yo‘ldan qaytmagan.

Manbalarda keltirilishicha, Imom Buxoriy mingdan ortiq ustozlardan ta‘lim olgan. Bu holat uning ilmga bo‘lgan cheksiz intilishi va izlanishlarini yaqqol ko‘rsatadi. U turli ilm markazlariga safar qilib, o‘sha davrning mashhur ulamolaridan hadis ilmini chuqur o‘rgangan.

Makka shahrida Imom Buxoriy quyidagi mashhur olimlardan saboq olgan:

- Abul Valid Ahmad ibn Muhammad Azraqiy
- Abdulloh ibn Yazid Muqriy
- Ismoil ibn Salim Soig‘
- Abu Bakr Abdulloh ibn Zubayr Humaydiy

Madina shahrida esa u quyidagi ustozlardan ilm olgan:

- Ibrohim ibn Munzir Hizomiy
- Mutarrif ibn Abdulloh
- Ibrohim ibn Hamza
- Abu Sobit Muhammad ibn Ubaydulloh
- Abdulaziz ibn Abdulloh Uvaysiy
- Yahyo ibn Qazaa

Shom va Buxoro kabi hududlarda ham u ko‘plab mashhur muhaddislar bilan uchrashib, ulardan hadis rivoyat qilgan. Bu esa uning ilmiy salohiyatini yanada boyitgan. Turli hududlardagi ustozlardan bilim olish Imom Buxoriyning ilmiy qarashlarini kengaytirib, hadislarini tanlashda chuqur tahliliy yondashuvni shakllantirgan.

Imom Buxoriyning shogirdlari ham nihoyatda ko‘p bo‘lgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, uning mashhur asari “Al-jome’ as-sahih” ni bevosita uning rahbarligida to‘qson mingga yaqin kishi o‘rgangan. Bu esa uning ilmiy faoliyati naqadar keng ko‘lamli bo‘lganini ko‘rsatadi.

Uning shogirdlari orasida mashhur muhaddislar – Muslim ibn Hajjaj, Imom Termiziy, Imom Nasaiy, Ibn Xuzayma, Ibn Abu Dovud kabi buyuk olimlar bor edi. Ular keyinchalik hadis ilmini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaganlar.

Yoshligidayoq Imom Buxoriyning ilmiy salohiyati ajralib turgan. Basra shahrida u hadis majlislarida ishtirok etganida, odamlar hatto uni ko‘tarib olib yurib, undan hadis eshitishga intilganlar. Bu holat uning ilmga bo‘lgan hurmati va xalq orasidagi obro‘cini yaqqol namoyon etadi. Hatto ayrim rivoyatlarda uning majlislariga o‘n minglab odamlar to‘plangani qayd etilgan.

Bag‘dodda ham Imom Buxoriyning shogirdlari juda ko‘p bo‘lgan. U yerda o‘tkazilgan ilmiy majlislarda minglab talabalar qatnashgan. Ba’zi manbalarda esa uning darslarida yigirma mingdan ortiq kishi ishtirok etgani zikr qilinadi. Bu esa uning ilmiy merosi naqadar ulkan ekanini ko‘rsatadi.

Imom Buxoriyning ilmiy merosi hajman katta bo‘lib, o‘z davrining diniy va ijtimoiy fanlarini keng qamrab olgani bilan ajralib turadi. U juda yoshligidan ilm bilan shug‘ullangan va hadis ilmini tizimli ravishda o‘rganishga kirishgan.

Rivoyatlarga ko'ra, u o'n sakkiz yoshga yetganida sahoba va tobeinlar haqidagi ma'lumotlarni tartibga sola boshlagan hamda dastlabki asarlarini yozgan.

Alloma o'zining tarixiy asarlarini Rasullulloh sollallohu alayhi vasallam qabrlariga yaqin joylarda, oy nurida tasnif qilgani haqida ham rivoyatlar mavjud. Bu esa uning ilmga bo'lgan yuksak hurmati va mas'uliyatini ko'rsatadi.

1. Al-jome' as-sahih

Bu asar hadis ilmidagi eng ishonchli manbalardan biri hisoblanadi. Unda sahih hadislar qat'iy mezon asosida jamlangan. "Al-jome' as-sahih" musulmon olamida Qur'ondan keyingi eng ishonchli kitob sifatida e'tirof etiladi.

2. Al-adab al-mufrad

Mazkur kitob axloq-odob mavzusidagi hadislarini o'z ichiga oladi. Unda insoniy munosabatlar, oilaviy hayot, jamiyat axloqi haqida muhim rivoyatlar jamlangan. Bu asar islom axloqshunosligining muhim manbalaridan biridir.

3. At-tarix al-kabir

Imom Buxoriy bu asarni yoshligida yozgan. Kitob hadis roviylarining tarjimai holi, ularning ishonchlilik darajasi va rivoyatdagi o'rni haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bu asar muhaddislar tarixidagi eng muhim manbalardan biri sanaladi.

4. At-tarix al-avsat

Bu kitob ham roviylar tarixiga bag'ishlangan bo'lib, o'rta hajmdagi tarixiy-biografik asar hisoblanadi. Uning qo'lyozmalari Hindiston hududida saqlanib kelgan.

5. At-tarix as-sag'ir

Mazkur asar roviylar haqida qisqaroq ma'lumotlarni jamlagan. U ham tarixiy-biografik xarakterga ega bo'lib, keyingi muhaddislar tomonidan keng foydalanilgan.

6. Kitob uz-zu'afo

Bu asarda hadis rivoyat qiluvchilar ichida zaif deb baholangan shaxslar haqida ma'lumotlar berilgan. Kitob hadis ilmidagi tanqidiy yondashuvni aks ettiradi.

7. Kitob us-sunan fil fiqh

Nomidan ko'rinib turibdiki, bu asar fiqhiy masalalar va sunnat asosidagi hukmlarga bag'ishlangan. Biroq bu kitob bizgacha to'liq yetib kelmagan.

8. Qazo as-sahoba

Imom Buxoriy o'n sakkiz yoshida sahobalar hayotiga bag'ishlangan "Qazo as-sahoba" nomli kitobni yozgan. Bu uning ilk yirik asarlaridan biri hisoblanadi.

Imom Buxoriy faqat muhaddis emas, balki tarixchi olim sifatida ham tanilgan. Uning "Tarix" asarlari roviylarning tarjimai holi, ularning ilmiy darajasi hamda rivoyat zanjiridagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa hadis ilmining eng muhim yo'nalishlaridan biri – roviylarni tanqidiy tahlil qilish (jarh va ta'dil) ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Zamondoshlari ham Imom Buxoriyning "Tarix" asariga yuqori baho berganlar. Ayrim olimlar undan keyin yozilgan tarixiy asarlar uning ishidan mustaqil bo'la olmaganini ta'kidlaydilar.

Bu esa allomaning ushbu yo'nalishda yetakchi o'rin egallaganini ko'rsatadi.

Imom Buxoriy hayoti davomida keng jamoatchilikka ilm o'rgatish bilan shug'ullangan.

Uning darslariga ko‘plab talabalar qatnashgan, hatto uzoq hududlardan ham ilm izlab kelganlar. U kishining dars berish uslubi tartibli va ta’sirchan bo‘lib, maxsus muballighlar uning so‘zlarini xalqqa yetkazib turganlar.

Bu davrda uning obro‘-e’tibori nihoyatda oshib, xalq orasida katta hurmatga sazovor bo‘lgan. Biroq bu shuhrat ayrim hasadgo‘y kishilarning qarshiligiga ham sabab bo‘lgan.

Buxoro hokimi Xolid ibn Ahmad Zuhliy Imom Buxoriydan o‘z farzandlariga alohida dars berishni talab qiladi. Ammo Imom Buxoriy ilmni barcha uchun teng deb bilib, bu taklifni rad etadi.

U zot: “Ilmni bir guruhga xos qilib qo‘yib, boshqalardan ayirish to‘g‘ri emas”, degan mazmunda javob bergan.

Natijada, ayrim kishilar tomonidan unga nisbatan turli tuhmatlar uyushtirilib, u zot Buxorodan chiqib ketishga majbur bo‘ladi.

Imom Buxoriy hijriy 256-yil (milodiy 870-yil), Ramazon hayitidan bir kun oldin, juma kuni kechasi vafot etganlar. Ertasi kuni — hayit kunida, peshin namozidan keyin dafn qilinganlar.

U zot Hartang qishlog‘iga dafn etilgan. Ayrim rivoyatlarda uni Samarqandga olib borish rejalashtirilgani, ammo oxir-oqibat Hartangda dafn qilingani zikr etiladi.

Shuningdek, vafotlari oldidan u zotning holatlari, qilgan vasiyatlari va tush orqali kelgan bashoratlar ham manbalarda keltirilgan bo‘lib, bu holatlar u zotning ulug‘ maqomidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Imom Buxoriy islom ilm-fani tarixida beqiyos o‘rin egallagan buyuk muhaddis, tarixchi va faqih olimdir. Uning hayoti ilmga sadoqat, mehnatsevarlik va halollik namunasi sifatida bugungi kunda ham o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

Uning ilmiy faoliyatining shakllanishida oilaviy muhit, mingdan ortiq ustozlardan olgan ta’limi va ko‘plab safarlari muhim rol o‘ynagan. O‘zi esa minglab shogirdlar yetishtirib, ular orqali hadis ilmini keng yoygan.

Imom Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-tarix al-kabir” kabi asarlari hadis va tarix ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Ayniqsa, roviylar tarjimai holiga bag‘ishlangan asarlari hadis ilmidagi ishonchlilik mezonlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fiqh sohasida esa u mustaqil ijtihod darajasiga yetgan alloma bo‘lib, muayyan mazhab bilan cheklanmagan holda islom huquqining rivojiga hissa qo‘shgan.

Uning hayotining so‘nggi davrida Buxoro hokimi bilan yuzaga kelgan nizo, ilmni xos qilmaslik prinsipi va shu sababli boshidan kechirgan sinovlar uning prinsipial va adolatli shaxs ekanligini ko‘rsatadi.

Imom Buxoriyning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda va islom ilm-fanining muhim poydevorlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan manbaalar ro‘yxati:

1. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. Al-jome’ as-sahih.
2. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. Al-Adab al-Mufrad
3. Qosimov, U. Imom Buxoriy – hadis ilmining sultoni.
4. Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Odoblar hazinasini.